



FAOL SHAXS OTI YASOVCHI MORFEMALARNING FUNKSIONAL- SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Kuchimova Gulmera Muxiddinovna

JDPU doktoranti

kuchimovagulmera@gmail.com

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada faol shaxs oti yasovchi morfemalarning funksional-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada tilshunoslik nuqtayi nazaridan shaxs oti yasovchi morfemalarning yasama so'z yaratishdagi o'rni, ularning semantik yuklamasi hamda grammatik funksiyalari ochib beriladi. Shuningdek, faol shaxs oti yasovchi morfemalarning qo'llanilishidagi o'ziga xos jihatlar, turli til birliklari bilan bog'liqligi va ularning kontekstga ko'ra mazmuniy o'zgarishlari ko'rib chiqiladi. Maqolada tahliliy va qiyosiy usullardan foydalangan holda, faol shaxs oti yasovchi morfemalarning lingvistik xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: faol shaxs oti, morfema, semantika, funksional xususiyat, so'z yasash.

АННОТАЦИЯ В данной статье анализируются функционально-семантические свойства морфем, образующих активные личные существительные. В статье с точки зрения лингвистики раскрывается роль морфем, образующих личные имена существительные, в создании искусственных слов, их смысловая нагрузка и грамматические функции. Также рассматриваются специфические аспекты употребления морфем, образующих имя существительное активного лица, их связь с разными языковыми единицами и их смысловые изменения в зависимости от контекста. Используя аналитический и сопоставительный методы, в статье выделены лингвистические особенности морфем, образующих активные личные существительные.

Ключевые слова: имя существительное активного лица, морфема, семантика, функциональное свойство, словообразование.

ANNOTATION This article analyzes the functional-semantic properties of morphemes forming active personal nouns. The article reveals the role of morphemes forming personal nouns in the creation of artificial words from the point of view of linguistics, their semantic load and grammatical functions. It also examines the specific aspects of the use of morphemes forming active personal nouns, their connection with various language units and their semantic changes depending on the context. The article, using analytical and comparative methods, sheds light on the linguistic properties of morphemes forming active personal nouns.

Key words: active personal noun, morpheme, semantics, functional property, word formation.

KIRISH

Tilshunoslikda ot yasalishi boshqa turkumdagi so‘zlarga qaraganda alohida e‘tibor talab qiluvchi masala hisoblanadi. Chunki otlar o‘zbek tilida eng ko‘p yasaluvchi so‘zlar turkumidir. O‘zbek tilida ot yasovchi qo‘shimchalar soni til taraqqiyoti jarayonida o‘zgarib boradi. Akad. A. Hojiyevning tadqiqotlariga ko‘ra, 1970-yilda o‘zbek tilida 50 ga yaqin ot yasovchi qo‘shimcha mavjud bo‘lgan. Mazkur maqolada faol shaxs oti yasovchi morfemalarning funksional-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, faol shaxs oti yasovchi morfemalarning tuzilishi, ularning semantik funksiyalari hamda lisoniy-nutqiy realizatsiyasi o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mazkur tadqiqotda o‘zbek tilida faol shaxs otlarini yasovchi morfemalar tahlil qilingan. Tadqiqot uchun quyidagi metodlardan foydalanildi: ta’rifiy tahlil usuli – shaxs otlarini yasovchi morfemalarning ma’no va funksiyalarini aniqlash uchun; struktur-semantik tahlil – ot yasovchi morfemalarning morfologik va semantik xususiyatlarini aniqlash maqsadida; taqqosiy usul – o‘zbek tilidagi faol yasovchi morfemalarning boshqa tillardagi analoglari bilan solishtirish uchun; tadqiqot materiali sifatida o‘zbek tilidagi ot yasovchi morfemalar asosida yasalgan so‘zlar hamda turli lingvistik manbalardan olingan ma’lumotlar tahlil qilindi. O‘zbek tilshunosligida ot yasovchi qo‘shimchalar bir qancha olimlar tomonidan tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan. Avvalo, ularning morfemalar sistemasidagi ahamiyati o‘rganilgan. Xususan, A.P.Hojiyev morfemaning mohiyatini shunday belgilaydi: “Morfemalar sistemani shakllantiruvchi til birliklarini, ya’ni yasama so‘z yoki so‘z shaklini yasaydi. Uning mohiyati shundan iborat. Ularni “yasovchi til birliklari” deyish tog‘ri bo‘ladi. Ular shu yasovchilik belgisiga ko‘ra, boshqa birliklardan farq qiladi. Morfema o‘z ifoda va ma’no jihatiga ega bo‘lgan so‘z yasash yoki so‘z shaklini yasash uchun xizmat qiladigan lisoniy birlik”. Olim o‘zbek tilshunosligida an’anaviy ravishda “o‘zak morfema, leksik morfema” atamaları bilan atalayotgan morfemani e‘tibordan soqit qiladi va tilimizdagi affiksial morfemalarning rolini birmuncha ortiqcha baholaydi. Ammo yasashga asos bo‘lgan lisoniy / nutqiy birlikni inkor qilgan holda affiks morfemalarning ahamiyatini bo‘rttirish ham mantiqli emas. Turkiy tillarda yangi so‘zlar, asosan, faol yasovchi affikslar yordamida yasaladi. So‘z yasalish qoidalariga ko‘ra tuzilgan so‘zlar avvalgidek qo‘llanadi va o‘z ma’nosini yo‘qotmaydi. Shu sababli mashhur lingvist A.Trubetskoy haqli ta’kidlab o‘tganidek, “Oltay oilasiga oid tillar kabi sof agglyutinatív tillar tejamlí qo‘llaniladigan fonemalarning kichik inventariga, so‘z boshida har doim joylashib va yaqqol ajralib turadigan o‘zgarmas o‘zaklarga egaligi hamda har doim birbirlariga aniq bog‘lanadigan qo‘shimchalari bilan flektiv tillarga qaraganda texnik jihatdan ancha rivojlangan vositani ifodalaydilar...” . Binobarin, turkiy tillarda yasovchi morfemalar bilan so‘z yasalishi tilning boshqa xususiy quyi tizimlari qatori alohida tizim bo‘lib, u lingvistikaning alohida o‘rganish sohasini tashkil etadi hamda boshqa tilshunoslik fanlari semantika, morfologiya, sintaksis, leksikologiya va boshqalar qatorida turadi. Shu kabi turkiy tillarning morfem tizimi global lisoniy tizimning quyi tizimi bo‘lib, u so‘z yasalish usullari, so‘z

yasovchi birliklar, so‘z yasash vositalari hamda o‘ziga xos xususiyatlar va munosabatlarga ega bo‘lgan lisoniy birliklar to‘plamidan, shuningdek, oddiy lisoniy birliklardan murakkab tuzilmalarni shakllantirish qoidalaridan iborat boshqa quyi tizimlarning to‘plamidir. Bu mantiqiy va sistemli aloqani tashkil etuvchi va uning barqaror faoliyatda bo‘lishini ta‘minlaydigan qonuniyat hamda mexanizm - agglyutinatsiyadir. Turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tilidagi yasovchi morfemalar tizimi uzoq davom etgan lisoniy tadrij va tilimizning morfonologik sathida yuz bergan o‘zgarishlar mahsulidir. Turkiy tilda yasovchi morfemalarning kelib chiqishi hamda tilda yangi lisoniy birlik (leksema, so‘z, morfema)ni shakllantirish tizimining vujudga kelishi bo‘yicha ikki xil yondashuv mavjud. Birinchisiga ko‘ra, affikslar bir vaqtning o‘zida lug‘aviy ma‘nosini, so‘ngra urg‘usini yo‘qotgan alohida so‘zlardan agglyutinatsiya qonuniyatlari asosida paydo bo‘lgan; demak, frazemaning so‘nggi so‘zi mustaqil ma‘nosini yo‘qotib, affiksial formantga aylangan. Ikkinchi nuqtayi nazarga ko‘ra, bir nechta bir komponentli yoki bir fonemadan iborat affikslarning birikishi, qo‘shilib ketishi natijasida murakkab qo‘shimchalar hosil bo‘lgan.

NATIJALAR

Otlar yasash xususiyatlariga ko‘ra boshqa turkumdagi so‘zlarga nisbatan alohida ajralib turadi. Chunonchi, otlarda yasovchi qo‘shimchalar ko‘p bo‘lib, ular ishtirokida ko‘plab yangi so‘zlar yasaladi hamda til taraqqiyoti davomida yasovchi qo‘shimchalar soni o‘zgarib boraveradi. O‘zbek tili so‘z yasash va morfemalar tizimini jiddiy o‘rgangan akad. A.Hojiyev o‘zbek tilida 50 ga yaqin ot yasovchi qo‘shimcha borligini qayd etadi. Shu boisdan ham otlar yangi so‘zlar hisobiga tez boyib boruvchi turkumdur. Otlar asosan **morfologik**, ya‘ni o‘zak negiziga maxsus so‘z yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish usuli bilan yasaladi va bunda yasash asosan **ot+ ot yasovchi morfema, fe‘l+ ot yasovchi morfema, tasviriy so‘z+ yasovchi morfema, sifat+ ot yasovchi morfema, modal so‘z+ot yasovchi morfema** shaklidagi qoliplar yordamida amalga oshiriladi. Bu qoliplarga asosan vujudga keluvchi hamda serunum yasovchi morfemalarning funksional-semantik xususiyatlari o‘rganilib, jadvalda berildi. Jadvalda o‘zbek tilida shaxs oti yasashda har ikki komponenti ham forschadan o‘zlashgan **“o‘zak morfema+affiks morfema”** qolipidan unumli foydalaniladi. O‘zbek tilining morfem sathiga forsha o‘zlashmalarning qabul qilingan va bu o‘zak va affiks morfemalar tilimizga o‘zlari tashigan tayyor ma‘nolar va shakllar bilan kirgan hamda ular faol affiks morfemalar qatoridan joy olgan. Bu hol o‘zbek-forstojik tillaridagi substratik aloqaning naqadar teran ekanligini ko‘rsatadi.

Shaxs otlari yasovchi morfemalarning lisoniy-nutqiy realizatsiyasi

qolip turi	Yasalmaning umumiy GM	Yasalmaning xususiy GM
I. Shaxs otlari		
ot + -chi yasovchi morfema	asosdan anglashilgan narsa bilan bog‘liq kasb, mutaxassislik bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti;	o‘zak morfema orqali ifodalangan narsa, predmet bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma‘nosidagi otlar yasaydi. <i>ishchi, suvchi, terimchi, o‘quvchi, o‘qituvchi;</i>

	asosdan anglashilgan ish/harakat/hodisa bilan shug‘ullanuvchi shaxs oti; asosdan anglashilgan ish-harakat, faoliyatda qatnashuvchi shaxs oti; ish-faoliyatda biror oqim, maslak va sh.k. tarafdori, shularga mansub bo‘lgan shaxsni bildiruvchi ot; asosdan anglashilgan hodisani, ish-harakatni bajarish odati kuchli bo‘lgan shaxsni bildiruvchi ot.	o‘zak morfema orqali ifodalangan predmet, narsa-hodisaga mansub ekanlikni ifodalovchi otlar yasaydi: <i>panfilovchi, musobaqachi, inqilobchi</i> . o‘zak morferma orqali anlashilgan narsa otidan unga aloqador kasb-korga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: <i>pichoqchi, suvoqchi, tilchi</i> ; o‘zak morfemadan anglashilgan hodisani, ish-harakatni bajarish odati kuchli bo‘lgan shaxsni bildiruvchi otlar yasaydi: <i>to‘polonchi, buzg‘unchi, tavakkalchi, chaqimchi, ginachi, uyquchi, lofchi</i> .
sifat, son + chi yasovchi morfemasi	ma’lum bir toifa, qatlam va guruhga oid shaxs oti yasaydi	o‘zak morfema anglatgan predmet, narsa-hodisaga mansub ekanlikni ifodalovchi otlar yasaydi: <i>a‘lochi, og‘machi, o‘n-mingchi, ikkichi</i> ;
fe‘l, sifat+chi yasovchi morfemasi	ma’lum bir toifa, qatlam va guruhga oid shaxs oti yasaydi	o‘zak morfema anglatgan belgi, xususiyatga egalikni bildiruvchi otlar yasaydi: <i>yozuvchi, sinovchi, quruvchi, qiziqchi, yolg‘onchi</i> .
ot+ -dosh yasovchi morfema	asosdan anglashilgan narsa yoki predmet bilan birgalik, hamjihatlik, yaqinlik ma’nolarini ifodalovchi shaxs otlari yasaydi.	a) yashash joyda, fikrda birgalikni ifodalovchi otlar yasaydi: <i>vatandosh, mahalladosh, fikrdosh, suhbatdosh</i> ; b) qarindoshlik jihatdan aloqadorlik va yaqinlikni bildiruvchi otlar yasaydi: <i>qarindosh, qondosh, jondosh, yostiqdosh</i> ; c) o‘rinda birlikni ifodalovchi: <i>yurtdosh, sinfdosh, vatandosh</i> ; paytda birlikni ifodalovchi: <i>zamondosh, asrdosh</i> ; holatda birlikni ifodalovchi: <i>fikrdosh, suhbatdosh</i> ; ijtimioiy-siyosiy platformada birlikni ifodalovchi: <i>g‘oyadosh, partiyadosh, ittifoqdosh</i> kabi otlarni yasaydi; d) ayrim fan atamalarini ham shakllantiradi: <i>sifatdosh, ravishdosh, mavzudosh, ma‘nodosh</i> kabi otlarni yasaydi.

ot+ -kash yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, kashidan "tortmoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir. <i>tortmoq</i> , <i>chekmoq</i> fe‘llarining til tarixida tashuv vositasiga nisbatan qo‘llanganda "yurgizmoq" va "haydamoq" ma‘nosi ham bor edi.	o‘zak morfema orqali ifodalangan narsa, predmetni "yurgizuvchi", "haydovchi" ma‘nolaridagi otlar yasaydi: <i>tuyakash</i> , <i>aravakash</i> , <i>kirakash</i> ; turkiy -chi affiks morfemasi bilan sinonimik munosabatga kirishadi: <i>tuyachi</i> , <i>aravachi</i> o‘zak morfema orqali ifodalangan narsa, predmetga qo‘shilib, unga aloqador "biror ish bilan shug‘ullanuvchi" shaxs ma‘nosidagi otlar yasaydi: <i>mehnatkash</i> , <i>pillakash</i> , <i>chizmakash</i> , <i>doirakash</i> , <i>chilimkash</i> ; o‘zak morfema orqali ifodalangan his-tuyg‘u va kechinmalarni tashuvchi shaxs ma‘nosini ifodalovchi ot yasaydi: <i>dardkash</i> , <i>alamkash</i> , <i>chillakash</i>
ot+bon yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, bonidan "qaramoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir. Bu affiks morfemaning bugungi kundagi morfi "qo‘riqlash, asrash" semasi bilan bog‘liqdir.	o‘zak morfema orqali ifodalangan narsa, predmetni qo‘riqlovchi, qarovchi ma‘nosidagi otlar yasaydi: <i>darbozabon</i> , <i>bog‘bon</i> , <i>taroziyon</i> , <i>qo‘ychivon</i> . o‘zak morfema orqali ifodalangan his-tuyg‘u va xususiyatlarga ega shaxs ma‘nosini ifodalovchi otlar yasaydi: <i>mehribon</i> , <i>sarbon</i> , <i>shafobatbon</i> . Uning – von fonetik varianti mavjud.
ot+ -dor yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, doridan "ushlamoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir	o‘zak morfema orqali anglashilgan narsaga egalikni ifodalovchi otlar yasaydi: <i>puldor</i> , <i>mulkdor</i> , <i>chorvador</i> , <i>aybdor</i> .
ot+ -boz yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, bozidan "o‘ynamoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir	o‘zak morfema orqali anglashilgan mashg‘ulot, ish, predmet bilan shug‘ullanuvchi ma‘nosidagi otlar yasaydi: <i>nayrangboz</i> , <i>masxaraboz</i> , <i>dorboz</i> , <i>kaptarboz</i> . Uning fonetik –voz shakli ham mavjud
ot+ -paz yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, pazidan "pishirmoq, tayyorlamoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali anglashilgan taomni pishiruvchi ma‘nosidagi otlar yasaydi: <i>oshpaz</i> , <i>somsapaz</i> , <i>kabobpaz</i> .

ot+ -shunos yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, shinoxtan "tanimoq, bilmoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali anglashilgan sohani egallaganlik ma’nosidagi otlar yasaydi: <i>tilshunos, adabiyotshunos, o‘lkashunos</i>
ot+ -parast yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, parastan "berilgan, topingan" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali anglashilgan ishga berilganlik ma’nosidagi otlar yasaydi: <i>amalparast, mansabparast</i> o‘zak morfema orqali anglashilgan biror-bir din yoki oqimga e’tiqod qo‘ygan shaxsni yoki jamoani ifodalovchi otlarni yasaydi: <i>butparast, otashparast, g‘arbparast, turkparast</i>
ot+ -furush yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, furuxtan "sotmoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali anglashilgan predmetni sotuvchi ma’nosidagi otlar yasaydi: <i>nosfurush, qovunfurush, telpakfurush</i> . ma’no ko‘chishi orqali vulgarizm va slenglar yasaladi: <i>vatanfurush, elfurush, yurtfurush, xotinfurush</i> .
ot+ -parvar yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, parvaridan "saqlamoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali ifodalangan predmetga sodiqlik ma’nosidagi otlar yasaydi: <i>vatanparvar, xalqparvar, ma’rifatparvar</i> .
ot + -xo‘r yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, xo‘rdan "yemoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali ifodalangan taomni ko‘p yoki kam yeydigan shaxs ma’nosidagi otlar yasaydi: <i>oshxo‘r, somsaxo‘r, chimxo‘r</i> . ishyoqmaslik, dangasalik ma’nosini ifodalovchi: <i>nonxo‘r, o‘laksaxo‘r, yuvindixo‘r</i> ; yovuzlik va yomonlik ma’nosidagi: <i>odamxo‘r, qonxo‘r</i> ; mehribonlik ma’nosidagi: <i>g‘amxo‘r</i> kabi otlar yasaydi
ot + -soz yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, sozidan "yasamoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali ifodalangan narsani tuzatuvchi shaxs ma’nosidagi otlar yasaydi: <i>soatsoz, aravasoz, mashinasoz</i> .
Ot + -do‘z yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, do‘zidan "tikmoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali ifodalangan narsani tikuvchi ma’nosidagi otlar yasaydi: <i>do‘ppido‘z, mahsido‘z, etikdo‘z</i>

ot + -gar/-kar/-kor yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, gardan "qiziqmoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali ifodalangan soha, ish, hunar bilan qiziquvchi yoki ular bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’nosidagi otlar yasaydi: <i>zargar, kimyogar, san’atkor, paxtakor, miskar</i> . Uning fonetik –gar, -kar, -kor kabi fonetik shakllari ham mavjud
ot + -xon yasovchi morfema	bu affiks morfema fors-tojik tilidan o‘zlashgan bo‘lib, xondan "o‘qimoq" so‘zining o‘zbek tilida affikslashgan shaklidir.	o‘zak morfema orqali anglashilgan narsani o‘qish bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’nosidagi otlar yasaydi: <i>gazetxon, jurnalxon, qissaxon, kitobxon</i> .

MUHOKAMA O‘zbek tilida shaxs otlarini yasovchi morfemalar ikkita asosiy manbadan kelib chiqqan: ichki til imkoniyatlari va boshqa tillardan o‘zlashgan morfemalar. Ichki til imkoniyatlari doirasida asosan qadimgi turkiy tillardan meros qolgan yasovchi affikslar faol ishlatiladi. Biroq fors-tojik tili kabi qo‘shni tillarning uzoq tarixiy ta’siri natijasida o‘zbek tilining morfem tizimi xorijiy unsurlar bilan boyigan. Xususan, fors tilidan o‘zlashgan *-chi; -dosh; -gar; -parast*; kabi qo‘shimchalar hozirgi o‘zbek tilida ham faol qo‘llaniladi.

Fors-tojik tilidan o‘zlashgan yasovchi morfemalar o‘zbek tilidagi so‘z yasash jarayoniga kuchli ta’sir o‘tkazgan. Masalan, *-chi*; yasovchi morfemasi hunarmandlik, kasb-hunar yoki biror faoliyat turi bilan bog‘liq shaxs otlarini hosil qilishda keng qo‘llaniladi (*temirchi, g‘allachi, kosibchi*). Shu bilan birga, *-dosh* morfemasi ham ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi shaxs otlarini hosil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi (*fikrdosh, qishloqdosh*). Ushbu yasovchi morfemalarning hozirgi kunda ham faol ishlatilishi ularning funksional samaradorligini ko‘rsatadi.

Faol shaxs oti yasovchi qo‘shimchalarni tadqiq qilish shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida shaxs otlarini yasovchi morfemalar yangi so‘zlarning shakllanishida muhim o‘rin tutadi. Xususan, *-chi*; va *-dosh*; morfemalari eng serunum yasovchi morfemalar qatoriga kiradi. *-chi*; morfemasi nafaqat an’anaviy kasb-hunar nomlarida, balki zamonaviy atamalarda ham uchraydi (*blogerchi, ITchi*). *-dosh*; morfemasi esa ijtimoiy va axloqiy aloqalarni anglatuvchi yangi so‘zlar yasashda qo‘llanmoqda (*yostiqdosh, taqdirdosh*). Bu esa tilning dinamik rivojlanishini hamda yangi tushunchalarni ifodalash imkoniyatining kengayishini ko‘rsatadi.

Shaxs otlari yasovchi morfemalarning o‘zbek tilidagi faol ishtiroki turkiy va fors-tojik tillari o‘rtasidagi tarixiy substratik aloqalarni yaqqol namoyon etadi. Ushbu aloqalar asrlar davomida Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning o‘zaro madaniy va lingvistik ta’sirini ifodalaydi. Ayniqsa, o‘zbek tili leksikasi va morfologiyasida fors-tojik tilining chuqur iz qoldirgani, xususan, ilm-fan, madaniyat va kasb-hunar bilan bog‘liq so‘zlarda ko‘rinadi.

XULOSA O‘zbek tilida shaxs otlari yasalishi murakkab, ko‘p manbali jarayon bo‘lib, bu jarayonda turkiy ildizlardan tashqari, fors-tojik tilidan o‘zlashgan yasovchi morfemalar ham muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, *-chi*; va *-dosh*; morfemalari hozirgi kunda ham so‘z yaslashida

yetakchi ahamiyatga ega bo‘lib, yangi so‘zlarni shakllantirish va tilning rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bois bu morfemalarni lingvistik tahlil qilish va ularning zamonaviy ishlatilish tendensiyalarini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбек тили грамматикаси. –Тошкент: Фан, 1970. - Б.11-12.
2. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз ясалиши. –Тошкент: Фан, 1970.-Б.36.
3. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Боқиева Г.Ҳ., Қурбонова. М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2009, 152-б.
4. Гаршин И. Алтайские языки и алтаистика ><http://www.garshin.ru/linguistics/languages/nostratic/altaic/index.html> (April, 2023)
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалишининг назарий масалалари. -Т.: Фан, 2010. -20 б., 29- б.
6. Ғуломов А., Тихонов А., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. -Тошкент: Фан, 1977. - б. 318
7. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. - Тошкент: «Фан» нашриёти, 1980. - Б.85-86.
8. Земская Е.А. Современный русский язык. Словообразование. -М.: Просвещение, 1973. -с. 195. (- 304 С.).
9. Қўчқортóев И. Сўз валентлиги // “Ўзбек тили ва адабиёти” , № 3, 1973. - 35-б.
10. Бузело А.С. Валентность морфем как проявление синтагматических связей единиц языка: дисс. на соискание ученой степени канд. филол. наук. -Алмати, 2005. - С. 17. 141.
11. Rasulov R. Valentlik nazariyasi. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 12 | 2022. -PP. 442-449.